

DARSLARNI SAMARALI TASHKIL QILISHDA TURLI INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH

Aliyeva Shahlo Buxoro

davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola darslarni samarali tashkil qilishda turli interfaol o'yinlardan foydalanish, darslarni sifati va talabalarni bilim saviyasini oshirishda interfaol ta'limga metodlarini ahamiyati va dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan hamda hozirgi paytda ta'limga jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni foydalanishni afzallikkari va muhim ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: interfaol ta'limga metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limga muassasalari, an'anaviy darslar.

Аннотация:

В данной статье представлена информация об использовании различных интерактивных игр в эффективной организации уроков, значении интерактивных методов обучения в повышении качества уроков и уровня знаний учащихся, а также использования интерактивных методов в ходе занятий. уроке, а также преимущества и важность использования современных педагогических технологий в учебном процессе.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, современные педагогические технологии, образовательные учреждения, традиционные уроки.

Abstract:

This article provides information about the use of various interactive games in the effective organization of lessons, the importance of interactive educational methods in improving the quality of lessons and the level of knowledge of students, and the use of interactive methods in the course of the lesson, as well as the use of modern

pedagogical technologies in the educational process. advantages and importance are discussed.

Key words: interactive educational methods, modern pedagogical technologies, educational institutions, traditional lessons.

Introduction:

Hozirgi vaqtda ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Materials and Methods:

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha katta tajribalar asosini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar deb ataladi. Interfaol ta'lif usullari hozirgi kunda barcha turdag'i ta'lif muassasalarida eng keng tarqalgan va keng qo'llaniladigan usullardir. Shu bilan birga, interfaol ta'lif usullarining ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonining deyarli barcha vazifalarini amalga oshirish uchun mos keladi. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lif metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lif oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol usul - faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro munozarada fikrlash jarayonida, birlik bilan hal qilishdir. Bu

metodning afzalligi shundaki, butun faoliyat talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va uni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Results and Discussions:

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lif maqsadi, talabalar soni va imkoniyatlari, ta'lif muassasasining o'quv va moddiy-texnik sharoiti, ta'lif muddati, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar hisobga olinadi. Interfaol metodlar deganda talabalarni faollashtiradigan, mustaqil fikrlashga undaydigan, ta'lif jarayonining markazida talabalar turadigan usullar tushuniladi. Ushbu usullardan foydalanilganda o'qituvchi talabalarni faol ishtirop etishga taklif qiladi. Talabalar butun jarayonda ishtirop etadi. Ta'lif oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lif samarasi yuqoriqbo'lgan o'qish-o'rghanish;
- ta'lif oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lif jarayoni ta'lif oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lif oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rghanilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Demak, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish o`ziga xos xususiyatlarga ega. O'quv amaliyotida qo'llaniladigan har bir interfaol metodni puxta o'rghanish va amaliyotda qo'llash talabalarining tafakkurini kengaytiradi va muammoning to'g'ri yechimini topishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalarining ijodkorligi va faolligini oshiradi. Turli nazariy va amaliy masalalar interfaol usullar orqali tahlil qilinsa, talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish va chuqurlashtirishga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lif metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lif strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lif metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lif" va boshqalar.

Interfaol ta'lif strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta'lif metodlari tarkibidan interfaol ta'lif strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lif metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interaktiv o'yinlar tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va ma'lumotni saqlash kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Bu o'yinlar o'quv viktorinalari, boshqotirmalarni yechish faoliyati yoki simulyatsiyaga asoslangan mashqlar ko'rinishida bo'lsin, talabalarni bilimlarini faol ravishda oshirishga yordam beradi va shu orqali mavzuni chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ko'plab interfaol ta'lif metodlari talabalarni mavzularni o'zlashtira olmaslik muammolarini hal etishga va talabalarni bilim darajalarini oshirishga yordam beradi.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyoragarlik ko'rildi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishslash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.Mashg'ulotda vaqtadan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lisi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lif usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lган interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lismeni ta'minlaydi.Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

Talabalar o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi talabalar bilimlarini «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Interfaol metodlardan biri bo'lgan savol - javob metodi.

Savollar 3 xil bo'ladi:

1. Yo'naltiruvchi
2. Ma'lumot beruvchi
3. Esga keltiruvchi

Savol - javob metodidan o'tgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida foydalanish yaxshi samara beradi. Savol - javob metodidan foydalangan holda didaktik (ta'limiy) o'yinlardan foydalanilsa ta'limda samaradorlik (o'quvchilar faolligi) oshadi. Bu o'yinlardan biri - "do'stingni top" o'yinidir. O'yinni tashkil etish uchun o'tgan mavzuga doir o'quvchilar soniga qarab savol - javob kartochkalari tayyorlanadi. Barcha o'quvchilarga bu kartochkalar tarqatiladi. Shovqin bo'lmasligi uchun bir boshdan savollarni o'qish taklif etiladi. Savolni eshitgan barcha o'quvchilardan birtasiga shu savolning javobi bor u aytishi lozim. Darsda shunday holatlar bo'ladiki hech kimdan sado chiqmaydi unda boshqa savolga o'tiladi. O'yin oxirida kimga javob kartochkasi qolganligi aniqlanadi va bu qaysi savolning javobi ekanligi o'qituvchi va o'quvchilar yordamida topiladi. Savol - javob metodidan "baliq ovi" o'yinida ham foydalanish mumkin. Baliqchalar shakli karton qog'ozidan tayyorlanadi, magnit, ip va tayoqchadan qarmoq tayyorlanadi. Baliqchalarga savol yoziladi. Kartonga skripka bog'lab qo'yiladi. Biror sovg'adan bo'shagan karobka olinadi, unga baliqchalar solinadi. O'quvchilar navbat bilan kelib qarmoq tashlab baliqni ovlaydi va savolga javob beradi. Savol - javob metodidan bahs davomida ham foydalanish mumkin. O'rtaga savol muammo tarzida tashlanadi. O'quvchilar bu savolga munosabat bildiradilar. To'g'ri javobni topishga harakat qiladilar.

Conclusion:

Interfaol metodlar o'qituvchi bilan talabalarning faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

maqsadi - dars qaysi shaklda bo`lmisin, qayerda o`ztkazilmasin, darsda o`qituvchi bilan talabalarning hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O`qituvchi darsida tegishli muammolarga talabalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada o`zlashtirishlarini ta'minlashi lozim. Bunda o`qituvchi faqat fasilitator (yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijobiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

References:

1. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.P. "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.
2. Amanova A.N. O'zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. "Journal of Natural Science" №2(7) 2022
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.4. Yo'ldoshev J.G'. , Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: O'qituvchi, 2004 yil.
- 4.R.Yo'ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta'limning interfaol metodlari(metodik qo'llanma). Urganch-2011.
5. www.ziynet.uz